

Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020- yil yanvar–sentabr, dastlabki ma’lumot)

2020- yil yanvar-sentabr oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchilarning o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek, uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig‘i va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud) **2360,8** ming so‘mni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan **12,8** % ga oshdi.

Yuridik shaxslarda xodimlar soni va mehnatga haq to‘lash tarzida hisoblangan daromad

(2020- yil yanvar-sentabr; qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik sub’ektlaridan tashqari)

	Korxonalar va tashkilotlar soni, birlik	Xodimlar soni, kishi	Mehnatga haq to‘lash tarzida hisoblangan daromad, mln.so‘m	O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m
Respublika bo‘yicha - jami	2948	147 400	3 131 841,1	2 360,8
shu jumladan:				
Sanoat	36	14 380	467 861,0	3 615,1
Qurilish	12	2 258	49 576,6	2 439,6
Savdo	9	1 988	39 639,3	2 215,5
Tashish va saqlash	13	8 275	260 037,3	3 491,6
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	5	78	2 254,8	3 212,0
Axborot va aloqa	38	1 172	25 502,1	2 417,7
Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik	87	2 985	132 621,5	4 936,6
Ta’lim	1381	67 681	1 149 020,0	1 886,3
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	81	25 363	470 284,8	2 060,2
San‘at, ko‘ngil ochish va dam olish	74	2 397	39 571,7	1 834,3
Boshqa faoliyat turlari	1212	20 823	442 565,1	2 361,5



Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020- yil yanvar- sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)



Maktabgacha ta'lim sohasi



1340,6 ming so'm

Umumiy o'rta ta'lim sohasi



2006,7 ming so'm

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi



1 886,3 ming so'm

O'rta maxsus kasb-hunar ta'lim sohasi



1583,5 ming so'm

Oliy ta'lim sohasi



4074,2 ming so'm

Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **1886,3** ming so'mni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan **8,5** % ga oshgan.




Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020- yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)



O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda




Ta'lim sohasi bo'yicha qator hududlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.

Respublikadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan sezilarli yuqori ko'rsatkichlar Nukus shahri - **126,9** %, Xo'jayli tumani - **104,3** %, Kegeyli tumani - **104,2** % va Ellikqal'a tumani - **103,8** % hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, 13 ta hududda ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining respublika o'rtacha ko'rsatkichidan past ekanligi kuzatildi.

Respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan sezilarli past ko'rsatkichlar Mo'ynoq tumani - **82,8** %, Taxtako'pir tumani - **83,9** %, Beruniy tumani - **84,6** % hamda Qorao'zak tumani - **85,7** % hissasiga to'g'ri kelgan.


O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda





Sanoat sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020- yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)



Sanoat iqtisodiy faoliyat turida 36 ta korxonada **14380** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **9,8** %)ni xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **467,9** mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi **14,9** %)ni tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **3615,1** ming so'mni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan **1,0** %ga o'sdi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nukus shahrida **7824,7** ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **2,2** barobarga yuqori) va Taxiatio'sh tumanida **3922,4** ming so'mni (**108,5** %) tashkil etgan bo'lsa, Amudaryo tumanida **1343,6** ming so'mni (**37,2** %), Kegeyli tumanida **1409,6** ming so'mni (**39,0** %), Qonliko'l tumanida **1439,2** ming so'mni (**39,8** %) va Chimboy tumanida **1509,5** ming so'mni (**41,8** %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020- yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)



O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari Shumanay tumani - **188,0** %, Taxtako'pir tumani - **121,9** %, Chimboy tumani - **118,0** % hamda Xo'jayli tumani - **101,4** % hissasiga to'g'ri kelmoqda

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi respublikaning 12 ta tumanida respublikadagi o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Xususan, ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Bo'zatov tumani - **76,7** %, Taxiyyatosh tumani - **81,1** %, Qo'ng'iro't tumani - **88,8** % hamda Beruniy tumani - **89,1** % hissasiga to'g'ri kelgan.


O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda





Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020- yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)




Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati iqtisodiy faoliyat turida **87** ta muassasada **2985** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,0 %)ni xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **132,6** mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 4,2% ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **4936,6** ming so'mni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan **32,7** %ga o'sdi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'niy o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nukus shahrida **5707,0** ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **115,6%**) tashkil etgan bo'lsa, Nukus tumanida **3790,2** ming so'mni (**76,8%**), To'rtko'l tumanida **3988,4** ming so'mni (**80,8%**) va Beruniy tumanida **4035,4** ming so'mni (**80,7%**) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

(2020- yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari, % da)



Respublika bo'yicha 2020- yil yanvar-sentabr oylarida 2019- yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyatida **32,7** % ga, tashish va saqlash sohasida **29,2** % ga, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda **24,3** % ga, savdoda **14,9** % ga, ta'lim sohasida **8,5** % ga, axborot va aloqada **3,1** % ga hamda sanoatda **1,0** % ga o'sganligi kuzatilgan bo'lsa, qurilish sohasida o'tgan yilning mos davriga nisbatan - **5,1** % ga kamaygan.



Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020- yil yanvar-sentabr, respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nukus shahrida **3013,7** ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **127,7** %), Qo'ng'iro't tumanida **2841,0** ming so'mni (**120,3** %), Taxiato'sh tumanida **2398,9** ming so'mni (**101,6** %) va Shumanay tumanida **2373,3** ming so'mni (**100,5** %) tashkil etgan bo'lsa, Beruniy tumanida **1719,3** ming so'mni (**72,8** %), Bo'zatov tumanida **1725,3** ming so'mni (**73,1** %), Amudaryo tumanida **1757,6** ming so'mni (**74,4** %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(yanvar-sentabr; qishloq xo'jaligi va kichik
tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari, ming so'm)

	2019- yil	2020- yil	O'sish sur'ati, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2093,5	2360,8	112,8
Nukus shahri	2621,3	3013,7	115,0
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	1637,6	1757,6	107,3
Beruniy	1629,7	1719,3	105,5
Bo'zatov	1689,8	1725,3	102,1
Qorao'zak	1617,4	1861,5	115,1
Kegeyli	1808,9	1941,0	107,3
Qo'ng'iro't	2353,8	2841,0	120,7
Qonliko'l	1918,2	1804,9	94,1
Mo'ynoq	2048,7	1854,9	90,5
Nukus	1814,5	2292,6	126,3
Taxiyatosh	1962,6	2398,9	122,2
Taxtako'pir	1747,2	1787,6	102,3
To'rtko'l	1749,3	1884,9	107,8
Xo'jayli	1861,5	2041,1	109,6
Chimboy	1719,0	1954,0	113,7
Shumanay	1626,8	2373,3	145,9
Ellikqal'a	1761,6	1994,1	113,2



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining "2020- yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, 2020- yilning 1- fevralidan boshlab mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori **679 330** so'mni tashkil etadi.

Ma'lumot uchun: "O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi" ko'rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi.

***Qoraqalpog'iston Respublikasi
statistika boshqarmasining
Demografiya va mehnat statistikasi
bo'limi
Tel: (61) 224-92-17 (61) 222-76-57***